

ARAB TILI NAHV TIZIMIDA YORDAMCHI FE'LLARNING AHAMIYATI VA ULARNING DINIY VA ADABIY MATNLARDA QO'LLANILISHI

Suvonqulova Ra'no Elmurod qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Lingvistika:

arab tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili tilshunosligida o'ziga xos o'rin tutadigan yordamchi fe'llar, xususan, noqis fe'llar turkumiga kiruvchi so'zlarning grammatik va ma'noviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "Kana va uning sheriklari"ning gapda zamon, davomiylik va holat o'zgarishlarini ifodalashdagi roli klassik hamda zamonaviy tilshunoslik qarashlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Noqis fe'llar, ismiy jumla, muftado va xabar, sintaktik tahlil, semantik xususiyatlar, zamon va davomiylik ifodalanishi, holat o'zgarishi, inkor ma'nosi, e'rob qoidalari, nahv tizimi, qiyosiy tilshunoslik, Qur'oniy matnlar, adabiy tahlil, Ibn Molik, Sibavayh.

THE SIGNIFICANCE OF AUXILIARY VERBS IN THE ARABIC NAHW SYSTEM AND THEIR APPLICATION IN RELIGIOUS AND LITERARY TEXTS

Annotation: This article analyzes the grammatical and semantic characteristics of auxiliary verbs that occupy a unique place in Arabic linguistics, specifically focusing on the category of "deficient" verbs. The study elucidates the role of Kana in expressing tense, aspect, and state changes within a sentence, based on both classical and modern linguistic

perspectives. The research explores how these verbs transform the structure of nominal sentences, affecting the mubtada (subject) and khabar (predicate), and discusses their significance in conveying continuity, negation, and situational shifts in classical Arabic texts.

Keywords: Arabic linguistics, deficient verbs, nominal sentence, subject and predicate, syntactic analysis, semantic features, tense and aspect, negation, i'rab rules, Nahw system, classical linguistics, Quranic Arabic, Ibn Malik, Sibawayh.

Arab tili xom-som tillari oilasining somiy tillar guruhiga mansub bo'lib, 200 milliondan ortiq so'zlashuvchilar uchun ona tili hisoblanadi. Uning grammatikasi, asosan, ildiz va vazn tizimi asosida ishlaydi. Shu sababli ham, Amerikaning kognitiv fanlar sohasining ilg'or olimlaridan biri, tilshunos va faylasuf Avram Noam Chomsky: "Arab tili sintaksisi kuchli turlanish hamda tuslanish tizimiga ega bo'lishiga qaramay, izchil, hosilaviy va tizimli grammatik strukturani o'zida mujassam qilgan", - deya ta'rif bergan¹.

Arab tili grammatikasida morfologiya, asosan, sarf ilmi, sintaksis esa nahv ilmi deb yuritiladi. Sarfda so'z turkumlari, so'zlarning tuzilishi va vaznlardan hosil qilinishi, vaznlar o'rganilsa, nahv ilmida ushbu so'zlar jumlada qay vazifani bajarib kelishi, qay yo'sinda turlanib, tuslanishi o'rganiladi.

Yordamchi fe'llar arab tilshunosligida muhim ahamiyatga ega. Bu fe'llar mustaqil ma'noni ifodalay olmaydigan morfologik birliklardir. Ular, odatda, ismiy jumla tarkibida keladi va ismiy jumlaning ot kesimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu fe'llar gapda asosiy ma'noni izohlamaydi, balkim, jumлага qo'shimcha ma'no yuklaydi.

Jaloliddin G'alayoniyning "جميع الدروس العربية" kitobida yordamchi fe'llar haqida quyidagi ta'rif keladi:

«يسمى الفعل الذي لا يستقل بالمعنى, بل يحتلج إلى خبر يُتَمَّ معناه, فعلا ناقصا.»

¹ Chomsky, Noam. *Lectures on Government and Binding*. Dordrecht: Foris Publicationas, 1981.

“Ma’noni mustaqil anglata olmaydigan, balkim ma’noni butun qilish uchun kesimga muhtoj bo‘lgan fe’l noqis fe’l deb ataladi²”

Arab tilshunosligida yordamchi fe’llar noqis fe’llar deb ataladi, va ko’plab sarf hamda nahv kitoblarida ushbu atama ostida keladi.

Bu fe’llar ismiy jumлага zamon, davomiylik, ehtimollilik, orzu-istak kabi ma’nolarni yuklaydi. Masalan, quyidagi jumлада:

كان زيد نائما

Zayd uxlab yotgan edi.

Bu yerda «كان» fe’li yordamchi fe’l hisoblanadi. Gapdagi ot kesimga ta’sir ko’rsatib, uni grammatik jihatdan tushum kelishigiga o’tkazadi. Semantik jihatdan esa, bu fe’l jumлага o’tkan zamon ma’nosini yuklaydi, jumladagi asosiy mazmun «نائما»(uxlab yotgan) so’zi orqali ifodalanmoqda.

G’alayoniyni fikricha, ushbu fe’llarning asosiy vazifalaridan biri – ismiy jumla orqali ifodalanadigan holatni voqelikda zamon bilan bog’laydi.

Basra maktabining yetuk namoyondalari, jumladan, Halil Ahmad al-Farohidiy, Sibavayh yordamchi fe’llarni jumлада mustaqil kela olmaydigan birliklar sifatida e’tirof etadi. Xususan, Sibavayh o’zining “الكتاب” asarida ushbu fe’llarni jumlaning tarkibini o’zgartiradi degan fikrni ilgari surgan. Basra makatbi yordamchi fe’llarning grammatik jihatiga asosiy urg’uni qaratishgan.

Kufa maktabi namoyondalari esa yordamchi fe’llarning asosan, semantik va uslubiyl jihatlariga e’tibor berib, yordamchi fe’llarni zamondan tashqari, orzu-istak, umid, davomiylik holatini bildirishi haqida fikr bildirishgan.

Arab tilshunosligining yetuk olimlaridan biri Mahmud az-Zamaxshariyning fikriga ko’ra yordamchi fe’llar Qur’on oyatlarida davomiylik, holatning turg’unligini vujudga keltiradi. Shuningdek, ba’zi yordamchi fe’llar uslubiyl jihatdan kuchaytirish vositasi sifatida ishtirok etishi mumkinligini ta’kidlab o’tadi.

² الغلاييني، جلال الدين. جميع الدروس العربية. دار المعرفة، بيروت، ص. 154.

Ibn Molik o'zining "Alfiya" asarida yordamchi fe'llarni aniq bir grammatik mezon bilan belgilaydi:

«وكان وأخواتها ترفع المبتدأ اسما لها والخبر»

“Kana va uning sheriklari ismiy jumlaning egasini bosh kelishikka, ot kesimni tushum kelishigiga o'tkazadi.³”

Bundan tashqari, ibn Molik nazdida, yordamchi fe'llar jumlada murakkab fe'l qo'shilmasini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, uning fikricha, har bir yordamchi fe'l semantik jihatidan zamonga, davomiylik, orzu-istak, holatning o'zgarishga dalolat qiluvchi guruhlarga bo'linadi. Bu esa, tarjima jarayonida fe'llarni to'g'ri tarjima qilishga imkon beradi.

Yordamchi fe'llar arab tili grammatikasining murakkab qismlaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida ega va kesimdan iborat jumlani yoyiq gapga aylantirib, semantik jihatdan jumlani boyitish, kuchaytirish, davomiylik, orzu-istak, zamon kabi qo'shimcha ma'nolarni yuklash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jumla ma'nosining kengayishi va aniqlashishiga olib keladi.

Modal fe'llar diniy va adabiy manbaalarda chuqur semantik va uslubiy birlik sifatida qo'llanilib, ma'no chuqurligi hamda balog'atni oshirishga xizmat qiladi. Quyida diniy va adabiy matnlarda yordamchi va modal fellarning qo'llanilish izohi keltiriladi.

كان yordamchi fe'li quyidagi oyatda inkoriy holatda qo'llanilgan:

مَا كَانَ اللَّهُ لِيُعَذِّبَهُمْ وَأَنْتَ فِيهِمْ

“Alloh ularni sen oralarida ekan azoblamas edi.”⁴

Bu jumlada yordamchi fe'l inkor shaklida kelgan bo'lib, “hech qachon bo'lmaydi ma'nosini bildiradi. Semantik jihatdan bu yerda yordamchi fe'l mavjudlik ma'nosini emas, kuchli inkorni bildiradi.

Quyidagi oyati karimada esa كاد yordamchi fe'lining qo'llanilishini ko'rish mumkin:

³ ابن مالك. ألفية ابن مالك في النحو والصرف. دمشق: دار ابن كثير، 1998م.

⁴ Mansur, Abdulaziz. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021. – Anfal surasi, 33-oyat. – B. 296.

وَإِنْ كَادُوا لَيَفْتِنُوكَ عَنِ الَّذِي أُوحَيْنَا إِلَيْكَ

“Ular seni vahiyydan chalgʻitishga ozgina qoldi.”⁵

Ushbu oyatda voqea sodir boʻlishiga oz qolgani, lekin, sodir boʻlmaganligini, yaʼni muqarrar boʻlgan voqeaning toʻxtatilganligi bayon qilinadi. Semantik jihatdan yordamchi feʼl Allohning qudrati va inoyati sabab yuz bermagan fitnaning tahdidini aniq ifodalaydi.

Bundan tashqari, hadislarda ham yordamchi va modal feʼllar qoʻllaniladi.

"كَانَ النَّبِيُّ يُحِبُّ التَّيْمَنَ فِي تَتَعُّلِهِ وَتَرْجُلِهِ وَطُهُورِهِ

“Paygʻambar (s.a.v.) oʻng tomondan boshlashni yaxshi koʻrardilar: oyoq kiyishda, sochini tarashda va tahoratda.”⁶

Bu jumlada yordamchi feʼl davomiylik maʼnosini bildiradi, yaʼni ish-harakat bir marotaba takrorlanmagan, balkim, doimiy ravishda takrorlanuvchi, nabiylarga xos odat ekanligi bayon qilingan. Bu yerda yordamchi feʼl zamonga emas, uzluksiz harakatga ishora qiladi. Bu hadisda Rasulullohning sunnatlari fazilat sifatida namoyon qilingan.

كَادَ الْفَقْرُ أَنْ يَكُونَ كُفْرًا

“Faqirlik, (kishi) kufrga ketishiga ozgina qoldi.”⁷

Ushbu hadisda faqirlik darajasi kuchli darajaga yetganiga qaramay, kufr holat sodir boʻlmagan. Ish-harakat sodir boʻlish arafasida boʻlgan, lekin amalga oshmagan, bunga oyatda qoʻllanilgan modal feʼl ishora qiladi.

عَسَى رَجُلٌ يُبْلَغُ عَنِّي كَلِمَةً فَيَكُونُ أَفْقَهَ مِنِّي

“Balki kimdir mendan bir soʻz eshitib, (boshqalarga) yetkazadi va u mendan koʻra chuqurroq anglaydi.”⁸

Ushbu hadisi sharifda ehtimollikni bildiruvchi modal feʼl qoʻllanilgan. Lugʻaviy jihatdan “balki”, “shoyadki”, “ehtimol” maʼnolarini beradi, lekin hadis matnida عَسَى modal feʼli umidni emas, balkim roʻy berish ehtimoli kuchli boʻlgan holat ifodalanadi.

⁵ Mansur, Abdulaziz. Qurʼoni karim maʼnolarining tarjimai va tafsiri. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021. – Isro surasi, 73-oyat. – B. 296.

⁶ Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Sahih al-Buxoriy. – Qohira: Dar Ibn Kasir, 1993. – J. 1. – Kitob at-Tahara, hadis №168.

⁷ Bayhaqiy, Abu Bakr Ahmad ibn Husayn. Shuʼab al-Iman. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2000. – J. 5. – Hadis №10258.

⁸ Termiziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso. Sunan at-Tirmiziy. – Bayrut: Dar Ihya al-Turath al-Arabiyy, 1996. – J. 5. – Kitab al-Ilm, hadis №2656.

Bu hadis ilmni nafaqat eshitish, balki uni tushunish va jamiyatga foydali tarzda taqdim etish muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, zammonaviy arab adabiyotida yordamchi va modal fe'llar keng qo'llaniladi.

كَانَ الْفَقْرُ يَخُفُّنَا، وَلَكِنَّ الْأَمَلَ لَمْ يَمُتْ فِيْنَا.

“Qashshoqlik bizni bo'g'ar edi, ammo umid bizda hech qachon o'lmagan edi.”⁹

Bu gapda yordamchi fe'l ot kesimga emas, hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan ifodalangan fe'l kesimga bog'langan. Shu sababli ham, jumlada o'tmishdagi doimiy davom etgan holat ifodalangan. Jumlarlar bir-biriga contrast uslubda yozilgan bo'lib, uslubiy kuchaytirish amalga oshirilgan.

Navbatdagi adabiy manbaadan parchada كَادَ modal fe'li ishtirok etgan.

كَادَ الظَّلَامُ يَبْلُغُ الشَّارِعَ لَوْلَا نُورُ الْمَصْبَاحِ.

“Ko'chani zulmat yutib yuborishga oz qolgandi, agar fonar nuri bo'lmaganda.”¹⁰

Ushbu adabiy parchada modal fe'l ro'y berishiga oz qolgan holatning amalga oshmaganli haqida bayon qiladi.

كَادَ الظَّلَامُ يَبْلُغُ الشَّارِعَ لَوْلَا نُورُ الْمَصْبَاحِ.

“Ko'chani zulmat yutib yuborishga oz qolgandi, agar fonar nuri bo'lmaganda.”¹¹

Ushbu jumlada modal fe'l voqeaning aniq yuz berishiga emas, balkim yuz berish ehtimoliga ishora qiladi.

Ushbu bo'limda arab tilidagi yordamchi hamda modal fe'llarning Qur'oni karim, hadisi sharif matnlarida hamda adabiy manbaalardan parchalarda qo'llanilishini semantik nuqtayi-nazardan tahlil qilindi. Ularning matnni balog'iy va fasohat jihatidan boyitishini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

⁹ Husayn, Taha. Al-Ayyam [Kunlar]. – Bayrut: Dar al-Ma'orif, 1968. – J. 1. – B. 22.

¹⁰ Mahfuz, Najib. Bayn al-Qasrayn. – Bayrut: Dar ash-Shuruq, 1988. – B. 41.

¹¹ Kanafani, Ghassan. Rijal fi ash-Shams. – Bayrut: Dar al-Adab, 1973. – B. 19.

1. Chomsky, Noam. Lectures on Government and Binding. – Dordrecht: Foris Publicationas, 1981.
2. G‘alayoniy, Jaloliddin. Jami’ ad-durus al-arabiya (جميع الدروس العربية). – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 2005.
3. Ibn Molik. Alfiya ibn Molik (ألفية ابن مالك في النحو والصرف). – Damashq: Dar Ibn Kasir, 1998.
4. Ibn Hishom, Jamoliddin. Mug‘niy al-labib ‘an kutub al-a’arib (مغني اللبيب عن كتب الأعراب). – Qohira: Maktaba al-Xonjiy, 2010.
5. Sibavayh, Amru bin Usmon. Al-Kitab (الكتاب). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 1988.
6. Zajjoj, Ibrohim bin as-Sariy. Ma’oniy al-Qur’an va i’rabuhu (معاني القرآن وإعرابه). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 1988.
7. Ibrohimov, N., Yusupov, M. Arab tili grammatikasi. – Toshkent, 2010.